https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

To‘xtayeva Muqaddas Olimovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlan‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Xadjimusayeva Nilufar

Ilmiy rahbar: Jizzax davlat pedagogika universiteti

Filologiya fanlar bo‘yicha PhD, dotsent

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARINI PIRLS BAHOLASH TIZIMI ASOSIDA SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarini Pirls baholash tizimi asosida samarali tashkil etish yo‘llari haqida fikr bayon etilgan. Xalqaro baholash dasturi asosida dars o‘tish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshiradi, darsga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchli mustahkamlaydi. Dars jarayonida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish, matn ustida ishlash samaradorligini oshirish to‘g‘risida bayon qilingan. Maqolada shuningdek, PIRLS mezonlariga mos topshiriq turlari, pedagogik yondashuvlar va milliy ta’lim tizimida ularni qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar

PIRLS, xalqaro baholash tizimlari, matn bilan ishlash, qobilyat, o‘qish savodxonligi

Abstract

This article presents ideas on ways to effectively organize primary school native language lessons based on the Pirls assessment system. Teaching lessons based on the international assessment program increases students' intellectual

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

potential and further strengthens their interest in the lesson. It describes the development of students' cognitive activity during the lesson, increasing the efficiency of working on the text. The article also discusses the types of tasks that meet the PIRLS criteria, pedagogical approaches, and the possibilities of their application in the national education system.

Keywords

PIRLS, international assessment systems, working with text, ability, reading literacy

Аннотация

В данной статье представлены идеи о способах эффективной организации уроков родного языка в начальной школе на основе системы оценки PIRLS. Проведение уроков по международной программе оценки повышает интеллектуальный потенциал учащихся и дополнительно укрепляет их интерес к предмету. Описывается развитие познавательной деятельности учащихся во время урока, повышение эффективности работы с текстом. В статье также рассматриваются типы заданий, отвечающих критериям PIRLS, педагогические подходы и возможности их применения в национальной системе образования.

Ключевые слова

PIRLS, международные системы оценки, работа с текстом, способности, грамотность чтения

Kirish qism : Mustaqil O‘zbekiston bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Har sohada ulkan o‘zgarishlar qilinib, O‘zbekiston yagicha qiyofa kasb etmoqda. Xususan, ta’lim tizimiga Xalqaro baholash tizimining kirib kelishi ham muhim o‘zgarishlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra bugungi har bir fan o‘qituvchisi Xalqaro baholash tizimi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi va o‘quvchilarni PIRLS imtihonlariga tayyorlashi muhim vazifa deb belgilanmoqda. Shu o‘rinda savol tug‘iladi PIRLS o‘zi nima?

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o‘qish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarorini keltirish mumkin. Bu qarorda xalqaro baholash dasturlari PIRLS-boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun, TIMSS-4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun, PISA - 15 yoshli o’quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun hamda TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha eng aniq va zarur bo‘lgan yo‘nalishlar ko‘rsatib berilgan[1].

Ushbu qarorda belgilangan vazifani bajarishda o‘qituvchilar o‘z ustida ko‘proq ishlashlari, xalqaro baholash dasturlariga tayyorlanish uchun tavsiya etilgan mashq daftarlaridagi matnlar bilan birgalikda sinfda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarida foydalaniladigan matnlarni ham chuqur tahlil qilishlari, o‘zlari ham berilgan matnlar asosida topshiriqlar tuzishlari lozim bo‘ladi[2].

Metodlar : PIRLS dasturi asosan o‘quvchilarning ikki asosiy jihatini baholaydi, ya’ni axborotni olish mamaqsadi o‘qish va tajriba orttirish (badiiy) maqsadida o‘qish. Har ikki yo‘nalishda ham o‘quvchi faqat matnni o‘qibgina qolmay, balki uni anglab, mantiqiy xulosa chiqarish, muallif fikriga baho berish, o‘z nuqtai nazarini shakllantirish kabi faol intellektual harakatlarni amalga oshirishi kerak bo‘ladi. Bunda PIRLS tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv ko‘nikmalar darajasi ham muhim o‘rin tutadi. Bu darajalar quyidagilardan iborat:

Axborotni topish - matndan kerakli ma’lumotni izlab topish;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mazmunni tushunish - o‘qilgan matn asosida tushuncha hosil qilish;

Tahlil va izoh berish - matnning ichki tuzilishi yoki til vositalariga baho berish;

Baholash va talqin qilish - matndagi g‘oyaga tanqidiy yondashish va o‘z fikrini bildirish.

PIRLS o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning fikrlash jarayonini, kognitiv rivojlanishini ham chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu bois, bu dasturda qo‘llaniladigan mezonlar bugungi boshlang‘ich ta’limda keng joriy etilishi lozim bo‘lgan metodik ko‘rsatmalar sifatida qaralmoqda.

PIRLS mezonlarini darsga tatbiq etishda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Matn asosida kognitiv savollar tuzish

PIRLS dasturida savollar o‘quvchilarning kognitiv faoliyat darajasiga qarab tuziladi. Bu savollarni o‘zbek tilidagi matnlar asosida quyidagicha moslashtirish mumkin:
Axborotni topish: “Matnda bolakay nimani topdi?”

Mazmunni tushunish: “Nega bosh qahramon bu ishni qildi, deb o‘ylaysan?”
Tahlil qilish: “Muallif bu gap orqali nimani aytmoqchi bo‘lgan?”

Baholash va fikr bildirish: “Senga bu hikoya yoqdimi? Nega?”

2. Didaktik materiallar va topshiriqlar yaratish

Har bir matn asosida mazkur mezonlarga mos topshiriqlar ishlab chiqish-integratsiya jarayonining muhim bo‘lagidir. Masalan:

- Matnning asosiy g‘oyasini yozdirish;
- Voqealarning ketma-ketligini aniqlash va rasmda ifodalash;
- Qahramonlarning fe’l-atvorini taqqoslash jadvalini to‘ldirish;
- O‘quvchidan matnga muqobil yakun yozishni so‘rash

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ertak. Bor ekan, yo‘q ekan, bir qishloqda jajjigina bir qizcha bor ekan. U, dunyoda tengi yo‘q, juda yoqimtoy ekan. Buvisi unga tug‘ilgan kuni sharafiga bitta qizil shapkacha sovg‘a qilibdi. Qizcha qayoqqa borsa, shu chiroyli, yangi qizil shapkachasini kiyib borar ekan. Qo‘ni-qo‘shnilar uni ko‘rganda: “Ana, qizil Shapkacha kelyapti!” - der ekanlar.

Bir kuni oyisi somsa pishirib, qiziga:

- Oppoq qizim, qizil Shapkacha, mana bu somsa bilan kuvachadagi yog‘ni buvingga oborib bergin, eson-omonligini bilib kelgin, — debdi.

Qizil Shapkacha buvisini ko‘rgani narigi qishloqqa ketibdi.

U o‘rmondan chiroyli gullar terib, sekin-asta ketayotsa, oldidan och Bo‘ri chiqib qolibdi.

- Qizil Shapkacha, qayoqqa ketyapsan? — debdi Bo‘ri.
- Buvimni ko‘rgani ketyapman, buvimga mana bu somsalar bilan kuvachada yog‘ olib boryapman.
- Buvingning uyi uzoqdami? — deb so‘rabdi Bo‘ri.
- Ha, uzoqda, — deb javob beribdi qizil Shapkacha. — Huv anavi tegirmon orqasidagi qishloqda. Eng chekkadagi uyni ko‘ryapsanmi? O‘sha.
- Yaxshi, - debdi Bo‘ri. - Men ham buvingni ko‘rib kelaman. Men manavi yo‘ldan boraman, sen bo‘lsang, anavi yo‘ldan bor. Ko‘ramiz, kim oldin borarkin.

Shunday deb, Bo‘ri eng yaqin yo‘ldan g‘izillab chopib ketibdi. Qizil Shapkacha bo‘lsa eng uzoq yo‘ldan yurib ketibdi. U yo‘lma-yo‘l to‘xtab, gullar teribdi, guldasta yasabdi.

Qizil Shapkacha hali tegirmon oldiga ham yetmagan ekan, Bo‘ri kampirning uyiga yetib, eshikni taqillatibdi:

- Taq-taq!

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

- Kim? — deb so‘rabdi kampir.

- Men, - nevarangiz qizil Shapkachaman, — deb javob beribdi Bo‘ri ovozini ingichka qilib. - Siznikiga mehmon bo‘lib keldim, somsa bilan kuvachada yog‘ keltirdim.

Kampir bu vaqt to‘shakda kasal bo‘lib yotgan ekan. U chindan ham qizil Shapkacha kelibdi, deb o‘ylab:

- Jonginam, ipni tort, eshik ochiladi! - debdi.

Bo‘ri ipni tortibdi, eshik ochilibdi. Bo‘ri chopib borib, kampirni bir yamlab yutib yuboribdi. Keyin eshikni yopib, kampirning o‘rniga yotib, burkanib olibdi-da, qizil Shapkachani kuta boshlabdi. Tezda qizil Shapkacha kelib, eshikni taqillatibdi:

- Taq-taq!
- Qizil Shapkacha uyga kirib, karovat yoniga kelibdi-da:
- Voy, buvijon, qo‘llaringiz muncha uzun?! — deb so‘rabdi.
- Seni mahkam quchoqlash uchun, bolaginam, — debdi Bo‘ri.
- Buvijon, quloqlaringiz muncha katta? — debdi qizil Shapkacha.
- Gaplaringni yaxshiroq eshitish uchun, jonginam, — debdi Bo‘ri.
- Buvijon, ko‘zlaringiz muncha katta?
- Seni yaxshiroq ko‘rish uchun, jon bolam.
- Buvijon, tishlaringiz muncha katta?
- Seni tezroq yeb qo‘yish uchun, jonginam! — deb och Bo‘ri qizil Shapkachaga tashlanibdi-da, uni boshmog‘i va qizil shapkachasi bilan birga yutib yuboribdi. Qizil Shapkacha dod deyishga ham ulgurmay qolibdi.

Shu vaqt, baxtiga, uy yonidan o‘tinchilar o‘tib borayotgan ekan. Yelkalarida boltalari ham bor ekan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ular Bo‘rining ovozini eshitib, uyga chopib kiribdilar va Bo‘rini o‘ldiribdilar. Keyin uning qornini yorsalar, ichidan qizil Shapkacha bilan buvisi chiqibdi - ikkovlari ham sog‘-omon ekanlar.

Topshiriqlar:

1. Buvisi qizga nima sababdan qizil shapkacha sovg‘a qiladi?

A) yaxshi ko‘rganidan

B) tug‘ilgan kunligi uchun

C) buvisi sovg‘a qilmaydi

2. Qizil shapkacha nima sababdan buvisini ko‘rishga boradi ?

A) kasal bo‘lgani uchun

B) sog‘ingani uchun

C) oyisi aytgani uchun

3. Qo'ni-qo‘shnilar qizil shapkachani ko‘rsa, u ekanligini tezda qanday bilishar edi?

4.Qizil shapkachani yo‘lda kim uchratib qoladi?







Natijalar: PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida o‘qishini ikki turi baholanadi:

O‘quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o‘qish;

Ma’lumotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o‘qish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadqiqot qoidalariga muvofiq, badiiy va informatsion matnlarni o‘qiyotganda o‘qish qobiliyatining **to‘rtta** guruhi baholanadi:

- aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- ma’lumotlarni talqin va sintez qilish;
- mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko‘ra, o‘rtacha 500 dan 800 tagacha, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasi past bo‘lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so‘zdan iborat bo‘ladi.

PIRLS tadqiqotida o‘qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

- **Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori)** – O‘quvchilar matnni yaxlit o‘zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog‘liq holda tushunadi. Muallifning g‘oyasini izohlashda o‘z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.
- **Yuqori daraja (550 ball)** – O‘quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o‘z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e’tibor qarata oladi.
- **O‘rta daraja (475 ball)** – O‘quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba’zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o‘z xulosalarini chiqaradi.
- **Quyi daraja (400 ball)** – O‘quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo‘lgan xabarni ajratib oladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini PIRLS baholash tizimi asosida samarali tashkil etish uchun baholash mezonlari dars jarayoniga integratsiyalash zarur. Bu mezonlar orqali o‘qituvchi matnni tushunishning turli komponentlarini, xususan asosiy fikrni aniqlash, tafsilotlarni ajratish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

va xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni tizimli ravishda shakllantiradi. PIRLS tizimi talablariga mos darslar rejasini tuzishda interaktiv metodlar, differensial yondashuv va o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar muhim o‘rin tutadi. Bu usullar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi va darsni yanada samarali o‘tkazishga xizmat qiladi. Baholashning formativ shakli (dars davomida o‘quvchilarning faolligi va bilim darajasini doimiy kuzatish) o‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi kamchiliklarini vaqtida aniqlashga yordam beradi. Bu yondashuv talabalarning individual ehtiyojlariga mos pedagogik strategiyalarni qo‘llash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi ham juda muhim. Ularni PIRLS mezonlari asosida dars o‘tkazish strategiyalari va baholash usullariga tayyorlash o‘qitish jarayonining sifatini oshiradi. Bu - pedagogik kadrlarning PIRLS kontentini chuqur tushunishi va uni dars jarayoniga samarali tatbiq etishi orqali amalga oshadi.

Amaliyotda PIRLS mezonlarini joriy etish burilish nuqtasiga ega bo‘lib, u boshlang‘ich sinf darslarini yanada natijaviy va maqsadli qiladi. Misol uchun, dars rejalari va mustaqil ishlar topshiriqlari PIRLS standartlariga moslashtirilsa, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin.

Xulosa: PIRLS baholash tizimi boshlang‘ich sinf ona tili darslarini tashkil etishda aniq yo‘nalishlarni belgilab beradi. Uning mezonlari asosida: matnni tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish -talabalarning tanqidiy fikrlash salohiyatini oshiradi. Interaktiv va differensial metodlar qo‘llanishi - dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Formativ baholash - o‘quvchilarning individual taraqqiyotini doimiy monitoring qiladi va muammolarni erta aniqlash imkonini beradi.

O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi - PIRLS mezonlariga asoslangan samarali ta’lim strategiyalarini amaliyotga tatbiq etishni ta’minlaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shu bilan birga, PIRLS tamoyillarini ona tili darslariga qo‘llamoqchi bo‘lgan maktablar uchun doimiy pedagogik treninglar, innovatsion metodik qo‘llanmalar va baholash tizimi bo‘yicha samarali metodologiyalar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Bu - o‘quvchilarning til bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, mustaqil o‘qish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlash yo‘lida muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vaqzirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori. 2018-yil 8-dekabr. https://lex.uz.

2.Abdixadirovna, U.D.(2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Programm.European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6,696-700

3.https://tafakkur.net/ajdar-qush/xalq-og‘zaki-ijodi.uz

4.Uzbekistan Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.(2020). Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklari(1-4-sinflar).